

## Andijon viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-iyun dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


### I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 293 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 100 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 193 tani tashkil qildi.


2025- yilning yanvar-iyun oyilarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 13 726,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-iyun oyilariga nisbatan 107,2 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 065,7 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 12 660,6 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 059,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 109,2 %) tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



### Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




## II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 771 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 31 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 740 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar- iyun oyilarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 6 075,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 6,4 % ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 5 947,7 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,0 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 97,9 % ni tashkil qildi.

### Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Xonobod (8,2 %) shaharida, Jalaquduq (7,0 %) tumanida kuzatildi.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




### III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 235 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 233 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar- iyun oyilarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 6 721,1 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 110,6 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 89,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

### Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





#### IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

|                                                                                 |                                                                    |                                                          |                                                                   |
|---------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------|
| <b>Chop etishga masul:</b><br>Xizmatlar va savdo sohasi<br>statistikasi bo'limi | <b>Bo'lim boshlig'i:</b><br>X.Toxirov<br>Tel: +998742288000 (6090) | <b>Ijrochi:</b> N. Usmanova<br>Tel: +998742288000 (6041) | <b>Manzil:</b> 170100, Andijon sh.,<br>M.Tiklanish ko'chasi, 36-a |
|---------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------|